



“TASDIQLAYMAN”
O‘zgidromet Bosh direktori
Sh. Khabibullayev

2022- yil “___”

**Gidrometeoroloiya xizmati markazining Xotin-qizlar va erkaklar
uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha
Maslahat kengashi yig‘ilishining
2-sonli BAYONI**

2022- yil “___”

Toshkent shahri

Rais: Sh. Khabibullayev – O‘zgidromet Bosh direktori

Qatnashdilar: O‘zgidrometning Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat kengashi a’zolari (*ro ‘yxat bo ‘yicha*)

KUN TARTIBI:

**O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq
hamda imkoniyatlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini**

**Gidrometeoroloiya xizmati markaziningda ta’minlash yuzasidan amalga
oshirilgan ishlar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar to‘g‘risida.**

*(Mukxamedova, Oripova, Ruzayeva, Obidova, Samadxodjayeva, Isxakova,
Mukxamedova)*

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini Gidrometeoroloiya xizmati markazida ta’minlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar ijrosi hamda Gidrometeoroloiya xizmati markaziningning (keyingi o‘rinlarda - O‘zgidromet) 2022- yil 18- maydagi 130-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash yuzasidan, Maslahat-kengashi (Keyingi o‘rinlarda-Kengash) yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishni Maslahat-kengashi raisi O‘zgidromet 1-bo‘lim yetakchi mutaxassis N.Mukxamedova kirish so‘zi bilan ochib berdi.

Kengash faoliyatini amaldagi qonun hujjatlari hamda uning nizomiga amal qilgan holda samarali tashkil etilishini hamda qo‘mitada xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni yaratish, Kengash qarorlarini ko‘rib chiqish uchun O‘zgidromet rahbariyatiga kiritib borilishini ta’minlash yuzasidan o‘z fikrlarini aytdi.

Shundan so‘ng Kadrlar bo‘limi - D. Samadxodjayeva so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2022- yil 1- mart kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 18-sonli bayoni bilan tanishtirib o‘tdi. Bunga ko‘ra 2022- yil 1- sentabrdan xususiy sektorda rasmiy ishlayotgan ayollarga homiladorlik davri nafaqasini davlat tomonidan kafolatli to‘lab berish tizimini joriy etilishi hamda bunda ayollarga **4** oyga **2 mln.** so‘m miqdorida bir martalik homiladorlik davri nafaqasi davlat tomonidan to‘lab berilishi to‘g‘risida ma’lumot berib o‘tdi.

Har yili xotin-qizlar uchun doktorantura yo‘nalishida davlat tomonidan kamida **300 ta** maqsadli kvota ajratilishi bu esa statistika tizimida ishlovchi xotin-qizlar uchun yaxshi imkoniyat ekanini aytib o‘tdi.

O‘zgidromet tizimida jins bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitishga olib keluvchi holatlar bo‘yicha xech qanday murojaat kelib tushmaganligi to‘g‘risida ma’lumot berdi.

Shuningdek, O‘zgidrometning Axborot-xizmati bo‘limi M. Ruzayeva so‘zga chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2022 - yil 1 - mart kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida 2022/2023 - o‘quv yilidan boshlab magistraturada o‘qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to‘liq byudjetdan qoplab berilsin, har yili **50** nafar qizlar nufuzli xorijiy oliv ta’lim muassasalariga bakalavr va **10** nafari magistraturaga yuborilishi, yosh farzandi bor talaba-qizlarga masofaviy o‘qishga sharoit yaratib berilishi xaqida topshiriq berib o‘tilganini ta’kidladi.

Shundan so‘ng O‘zgidromet Moddiy – texnika ta’mnoti boshqarmasi boshliq o‘rinbosari S. Oripova xodimlarga qulay mehnat sharoti yaratish maqsadida qo‘mita markaziy apparati **12** donasovutgich (xolodilnik), **15** dona konditsioner, 15 dona elektr choynak, **10** dona mikroto‘lqinli pech, **2** dona televizorlar bilan jixozlanganligi to‘g‘risida ma’lumot berdi.

Yig‘ilishda yana Moliya-iqtisod boshqarmasi Reja-iqtisod bo‘limi bosh mutaxassisasi - I. Obidova bir xil lavozimlarda ishlayotgan xotin-qizlar va erkaklarga oylik ish haqqi hamda unga tenglashtirilgan boshqa to‘lovlari teng to‘lanishini monitoring qilinishi haqida to‘liq tushuncha berdi.

Shundan so‘ng, Murojaatlar bilan ishslash va ijro bo‘limi yetakchi mutaxassisasi – D. Isxakova O‘zgidromet tizimiga 2022- yilning yanvar-may oylarida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlar kelib tushmaganligi to‘g‘risida axborot berdi.

Gidrometeoroloiya xizmati markazining Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minalash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashi nizomiga muvofiq, Kengash kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib, oddiy ko‘philik ovozi asosida

QAROR QILADI:

1. Maslahat-kengashi O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta’minalash masalalari bo‘yicha komissiyasining ustuvor yo‘nalishlari va tavsiyalariga amal

qilgan holda qonuniylik, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jinsi bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida faoliyat yuritishi ta’minlansinlar.

2. O’zgidromet xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni yaratish va ularni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni hamda Kengashning bu boradagi qarorlarini ko‘rib chiqish uchun O’zgidromet rahbariyatiga kiritib borilishini ta’minlasinlar.

3. Kadrlar bo‘limi (Sh. Ibragimova, D. Samadxodjayeva) kadrlarni tanlash va joylashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish va amalga oshirish, ularni malakasini oshirish, davlat statistika organlari uchun kadrlarni o‘qitish va qayta o‘qitish tizimini shakllantirishga yordam berish jarayonida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash choralarini ko‘rsinlar;

ishga kirish maqsadida murojaat qilgan nomzodlar bilan o‘tkaziladigan suhbat yoki boshqa jarayonlarda, ish beruvchi tomonidan vazifa va lavozimlarga tayinlashda hamda kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikni ta’minlash choralarini ko‘rish, rahbarlik lavozimlariga iqtidorli, talabchan va mas’uliyatlari xotin-qizlar nomzodlarini tavsiya qilinishi hamda ishga qabul qilish jarayonlarini meritokratiya tamoyili asosida amalga oshirilishini ta’minlasinlar.

4. Maslahat-kengashi faoliyatini samarali tashkil etgan holda, gidrometeorologiya organlarida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni yaratish, ularning mehnat huquqlarini himoya qilish, mehnatlariga munosib haq to‘lash va rag‘batlantirish ishlarini tizimli asosda tashkil etilishini ta’minlasinlar.

5. O’zgidrometning Yuridik bo‘limi (E. Islamov) ichki idoraviy hujjatlarni tahlil qilish orqali aniqlangan gender tengsizlikni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqib O’zgidromet rahbariyatiga taqdim etilishini ta’minlasin.

6. Kadrlar bo‘limi (D. Samadxodjayeva), Murojaatlar bilan ishslash va ijro bo‘limi yetakchi mutaxassis (D. Isxakova) bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi so‘roviga asosan, O’zgidrometda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etib borilishini tashkil etsinlar.

7. Bosh direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (K. Kulumbetov), O’zgidrometning Axborot-xizmati bo‘limi (M. Ruzayeva) bilan birgalikda O’zgidrometda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlashga yo‘naltirilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishi va bu borada amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etiladi.

8. O'zgidromet tizimida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatsin va bu haqda Kengashga va O'zgidromet rahbariyatiga ma'lumot kiritib borsin.

9. Kengash kotibi Kengash a'zolari faoliyatini muvofiqlashtirib borilishini ta'minlasin.

10. Kengash qarorida belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.